Bacteriologic tekshiruv natijalariga ko'ra sepsis, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda 95,5% ni tashkil etar ekan. Neonatal sepsis har 1000 yangi tug'ilgan chaqaloqning 0,5-8,0% aniqlangan. Kam vazn bilan tug'ilgan erta tug'ilgan chaqaloqlarda o'lim darajasi o'z vaqtida tug'ilgan chaqaloqlarga qaraganda 2-4 baravar yuqori. Erta boshlangan sepsis uchun umumiy o'lim darajasi 3-40% (erta boshlangan B guruhi streptokokklar uchun 2-10%) va kech boshlangan sepsis uchun 2-20% (kech boshlangan B guruhi streptokokklari uchun). Umumiy olganda infektsiyalar 2-10% ni tashkil qiladi. Kech boshlangan sepsis dan o'lim darajasi infektsiyaning etiologiyasiga qarab farq qiladi; Gram-manfiy bakteriyalar yoki Candida turlari keltirib chiqaradigan infektsiyalar uchun o'lim darajasi 32-36% ni tashkil qiladi. O'limga qo'shimcha ravishda, bakterial sepsis yoki kandidozni rivojlantiradigan

juda kam vazinlik yangi tug'ilgan chaqaloqlarda salbiy neurologic natijalar xavfi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. Xorijiy pediatriklar ma'lumotlariga ko'ra, neonatal sepsis bilan kasallanish bolalar 0,1-0,8% ni tashkil qiladi; reanimatsiya bo'limlarida erta tug'ilgan chaqaloqlar va perinatal patologiyasi bo'lgan bolalar orasida - 14%. Neonatal sepsis tufayli neonatal o'lim yuqori va barqaror - taxminan 30-40%. Shuningdek (64,2 dan 89,2%) hollarda kasallikni qo'zg'atuvchi infektsiya, patogen stafilokokklar, Safonova M.V., Krasovskaya T.V., Karmazanovskiy G.G. 1999 y. 86,4% qonda stafilokokk, 3,9 % -grammanfiy tayoqchalar, 3,1% - atipik kokklar, 12,3% - protey, 5,4% - aralash flora topilgan, V.S. Kononova (1974) y. A.M.Shamsiev va hammualliflar fikricha (2010), 123 chaqaloqlarda O'GEO, 64,4% bemorlarda grammanfiy mikrofloralar aniqlangan.

Mavzuning dolzarbligi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda bo'ladigan yiringli-septik kasalliklarni erta tashxislash va mukammal davo muolajalarini tadbqiq etish.

Material va uslublar. Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun ToshPTI klinikasi, xirurgik infektsiya bo'limida 2019 – 2024 yillarda, yumshoq to'qima-lardagi yiringli-septik kasalliklarga sabab bo'luvchi (ko'plamchi teri xo'ppozlari (pseudofrunculyz, nekrotik flegmona, mastit, paraproctit, omfalit, kon'yunktivit, dacryocystit, yangi tug'ilgan chaqaloqning osteomieliti) saramas bilan davolangan bemorlar tekshiruvdan o'tkazildi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda sepsis - bu mahalliy o'choqlardan qon oqimiga opportunistik va pyogen mikrofloraning kirib borishi natijasida yuzaga keladigan va og'ir tizimli ko'rinishlar bilan kechadigan umumiy kasallik jarayoni. Hozirgi vaqtda neonatal sepsisni qo'zg'atuvchilari orasida dominant o'rin (taxminan 50%) gramm-musbat flora (asosan, stafilokokklar, A guruhi gemolitik streptokokklar) tegishli. Keyingi o'rinda (40% hollarda) gramm-manfiy mikroflora (*Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Klebsiella* va boshqalar) aniqlanadi; 10% da etiologic agentlar aralash flora (ko'pincha stafilokokkning *Candida zamburug'lari* bilan birga kelishi).

Natijalar. Erta tashxislash va zarur muolajalarni o'z vaqtida va to'g'ri bajarish-ning samaradorligi yuqori ekanligi yana bir bor o'z isbotini topdi. Chaqaloqlarda bo'ladigan bu kasalliklar, tibbiyot xodimlarining e'tiborini yanada kuchaytirishni, chaqaloqlarni parvarish qilish qoidalariga rioya qilishni, bunday bolalardagi kasal-liklarni o'z vaqtida tashxislash va faol davolashni talab qiladi. Aynan chaqaloqlarda bo'ladigan bu kasalliklar tez rivojlanadi va birqancha asoratlarga sabab bo'ladi. Bu bemorlar to'g'risida ma'lumotlar bo'lishiga qaramasdan hali – haligacha kasallik-lar bilan og'rigan bemorlar soni va kasalliklardan keyingi bo'ladigan asoratlar; sepsis, septikapiyemiya va ayrim hollarda bolalarning nogiron bo'lib qolish va o'limga sabab bo'lishi bilan yakun topmoqda.

Material va uslublar. 2019 – 2024 yillarda Respublika bolalar jarrohlik markazi ToshPTI klinikasida 33 ta bemor 7-14 kunligida, 57 tasi 15-22 kunligida va 85 ta bemor 23-30 kunligida (jami 175 chaqaloq) yumshoq to'qimalarning yiringli yallig'lanishlari bilan davolangan. Davolangan chaqaloqlarning 41 tasi – piyodermiya bilan, 34 tasida psevdofrunculyz, 32 bemorda paraproctit, 24 ta chaqaloqda omfalit, 20 tasi o'ng va chap tomonlama yiringli mastiti bilan, 12 ta bemorda o'tkir gemotogen epifizar osteomiyelit, 7 bemor nekrotik flegmona va 5 bemor saramas (roja) bo'yicha davolangan.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda sepsisning fulminant (molnenos-yashin tezligidagi) shakli septik shocking rivojlanishi bilan yuzaga keladi: bolaning umumiy axvoli tez yomonlashadi, tana haroratning pasayishi yoki yuqori kotarilishi, bradikardiya, qon ketish, o'pka shishi va o'tkir buyrak etishmovchiligi. Neonatal sepsisning fulminant ko'rinishda tez rivojlanishi o'z navbatida chaqaloq xaytining 3-5 kunida o'limga sabab bo'lishi mumkin. Bizga murojaat qilib kelgan yoki boshqa klinikalardan o'tkazilgan bemorlarning ko'pchiligi, turli tashxislar bilan davolangan bemorlar. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda yiringli-septik kasalliklarning klinik belgilari 1–5 kungacha yashirin kechadi. Tanaga turli yo'llar bilan kirgan patogenlar, birlamchi septik o'choqning rivojlanishiga sabab bo'ladi: piyodermiya, omfalit, yiringli kon'yunktivit rivojlanadi. Kasalliklarning alohida mahaliy belgilari va sepsis o'rtasidagi chegara asosan, shartli - mahaliy yallig'lanish umumiy jarayonga tez o'tadi va umumiy klinik belgilari namoyon bo'la boshlaydi. Vesikulopustuloz (pseudofrunculyz) - mahaliy infektsiyaning eng keng tarqalgan shakli. Tananing turli soxalarida, bosh soch terisi va oyoq-qo'llarda soxta pufakchalar (pustula) paydo bo'lib, keyinchalik asoratlarga sabab bo'ladi. Tana yuzasidagi yallig'lanish soxasi quryb, qobiq hosil qiladi. Ba'zida tananing-turli joylarda infiltratlar va bir nechta

xo'ppozlar paydo bo'ladi. Bizga murojaat qilib kelgan bemorlarning 34 tasida vesikulopustulozning tana yuzasiga keng tarqalishiga va laborator xulosasiga ko'ra - Staphylococcus aureus aniqlangan. Neonatal sepsisning maxalliy xarakterli belgisi, teri yuzasi iflos-kulrang, sarg'ish rangda, teri yuzasida bir qancha boshqa toshmalar mavjud. Kasallik qancha uzoq davom qilsa uning umumiy belgilari, turli a'zolaridagi toksik zararlanishi tufayli; hepatosplenomegaly, pneumopathy (taxipnea, siyanoz), cardiopathy (taxikardiya yoki bradikardiya, arterial gipotenziya), dispepsiya, siydik sindromi (oliguriya, anuriya, o'tkir buyrak etishmovchiligi), gemorragik sindrom kuzatiladi. Ko'pincha septitsemiya intercurrent kasallik pnevmoniya qo'shilishi bilan jarayon ancha murakkablashadi.

Qo'shimcha yiringli metastazlar bilan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda septikapiyemiya yoki sepsis intoksikatsiya fonida, suyaklarda, jigarda va boshqa a'zolarida ikkilamchi yashirin o'choqlarining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ko'pincha septikopemiya yiringli meningit, xo'ppozlar, pnevmoniya, osteomielit rivojlanishi bilan sodir bo'ladi. Bizga murojaat qilib kelgan barcha bemorlarga konservativ va operativ davo muolajalari o'tkazildi. Davolash davrida bemorlarning umumiy holati qayta tiklandi, piyemik o'choqlar yo'qotilib, toksikoz va a'zolaridagi functional o'zgarishlar asta-sekin tiklandi. Takroriy laborator taxil natijalari, UTT, rentgen xulosasiga asoslanib, qoniqarli axvolda javob berildi.

Olingan natijalar muhokamalar.

Piyodermiya (Yun. pion — yiring va derma — teri) — terining yiringli kasalligi. Teriga yiringli yallig'lanishlarni paydo qiluvchi mikroblar — Stafilakokk va streptokokklar, goho ayrim mikroorganizmlar — pneumokokklar, ko'k yiring ta-yokchasi va boshqalarning tushushi sabab bo'ladi. Bazan bir nechta mikro-organizmlar bir-galikda uchrashi ham mumkin. Tabiatda stafilakokk va streptokokklarning doimiy mavjudligi piyodermiya sabab bo'ladi. Davolangan 41 chaqaloqda, tananing turli soxalarida - qizg'ish toshmalariga o'xshash va bir qancha yiringli xo'ppozlar, yorilib ochilgan va quryb qolgan ko'plamchi piyodermiya soxalari mavjud bo'lgan. Piyodermiya bilan davolangan bemorlarni boshqa bemorlar bilan aralashtirilmasdan alohida davolangan. Piodermiyaning barcha turlarini davolash konservativ va yiringli xosilalar bo'lganida xirurgik yo'l bilan amalga oshirilgan. Antibiotiklar, sulfanilamidlar, vitaminlar, spetsifik va nospetsifik immunobiologik terapiya hamda physiotherapeutic davo usullari qo'llanilgan.

Teri xo'ppozlari (pseudofrunculyz) bilan davolangan 34 bemorlarning deyarli ko'pchiligida, yallig'lanish boshning soch soxalarida, engsa va kamchiligida tananing boshqa soxalarida kuzatilgan. Shu soxalarda teri xo'ppozlarining uchrashiga sabab, terlash, teri yuzasida shilinish, teri ko'chishi, infeksiyalanish boshlanishidan dalolat beradi. Pustulalar o'rnida qizil-qizil rangdagi kichik tugunlar paydo bo'ladi, keyinchalik ular xo'ppozlarga aylanadi. Tananing turli soxalariga keng tarqalgan, ko'plamchi xo'ppozlar bo'lsa, sepsis rivojlanishi mumkin (rasim-1).



Rasm-1. Tanadagi va bosh soxalaridagi ko'plamchi xo'ppozlar.

Paraproctit — pararectal soha atrof to'qimalarning yiringli yallig'lanishi. Paraproctit o'tkir boshlanadi. Infektsion kirish darvozasi – perineum atrof to'qimalarning shikastlanishi. Anal atrof mintaqasida - siqilish, yorilishi, infeksiya tushushi sababli infiltratsiya, og'riq paydo bo'ladi,

defekatsiya jarayonning va siyish harakatlarining buzilishiga sabab bo'ladi. 32 ta chaqaloqda anal atrof soxalarida turlicha ko'rinishlarda, infiltrat va xo'ppozlar aniqlangan. Murojaat qilib kelgan Onalarning so'zidan bolalarning, bezovtalanishi, uyqusining buzulishi va keyinchalik umumiy holatning yomonlashishiga. Davolangan bolalarning – 6 tasida, ochilgan xo'ppoz kuzatilgan. Bu yoshdagi bemorlarda tana harorat 39° gacha kotarilishi mumkin. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda, yallig'lanish sohasida teri qizargan va yumshoq flyuktatsiyali xosila aniqlanadi. Bu vaqtda bolaning isitmasi bo'lmasa ham, shu sohada maxalliy harorat va og'riq bo'ladi (rasim-2).



Rasm-2. O'tkir paropraktit

Anusning o'zi biroz deformatsiyalangan. Qabul qilingan xar bir chaqaloq, malakali shifokorlar tomonidan tekshirilib tashxis qo'ygach, amaliy muolaja bajariladi. Paraproctit konservativ davo qilinmaydi. Uni dori-darmonlar bilan faqat dastlabki asimptomatic bosqichda, yiringlash va oqmalar paydo bo'lmaganda davolash mumkin. Ammo ko'p hollarda, bolada kasallikning aniq alomatlar bosqichida shifokorga murojaat qilib keladi. Davolangan bolalarning ko'pchiligini, o'g'il, bolalar tashkil qildi, 18 ta bolada. Bemorlar kasalxonaga yotqizilgach tez orada operatsiya qilinishi shart. Operatsiya paytida xo'ppozni ochish va yiringni chiqarib tashlash va oqma yo'llarini tozalash lozim. 26 ta chaqaloqni, operatsiyadan keyingi davrda – jarohatning batamon tiklanishigacha kuzatuvimizda bo'ldi. Agar jarrohlik o'z vaqtida bajarilmasa, infeksiya yiringli jarayon atrof to'qimalarga kirib, oqmali shakllanishiga olib kelishi mumkin. Bolalarda bu kasallik juda kam uchraydi, asosan hayotning birinchi yilda.

Omfalit – kindik chuqurchasining va atrof to'qimalarning yiringli yallig'lanishi. Omfalitning etiologiyasida yetakchi o'rinni oltin stafilokokklar egallaydi. Kasallikning oddiy, flegmonoz va nekrotik shakllari taffovut qilinadi. Omfalitdan oldingi belgisi, kindikni 3% vodorod peroksid eritmasi (vodorod perks) bilan davolashni boshlash lozim. Agar kindik cho'ltogi 6 kundan ortiq davom etsa, tushmasa, namlansa, shundagina omfalit haqida gapirish mumkin (rasim-3).




Rasm-3.Omfalit

Omfalit kindik qoldig'i tushganidan so'ng, kindik yarasining davolanish kechikishi mumkin. Ushbu kechishining asosiy sababi bu hududning yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Infeksiya qo'shilganda, kindik chuqurchasining yallig'lanishi, yiringning yig'ilishi kindik bo'shlig'ida yara

paydo bo'lishi, granulyatsiyaning g'ayritabiiy o'sishi (qo'ziqorin shaklida), kindik atrof, teri va teri osti yog 'qatlamining yallig'lanishi kuzatiladi. 24 ta bemor omfalitning turli shakllari bilan davolangan. Shulardan 11 tasi kataral omfalit bo'yicha, 10 ta bemor flegmonoz shakli va 3 ta bemor to'liq va noto'liq kindik-ichak oqmasi va shuningdek, obliteratsiyalanmagan uraxus bo'yicha davolangan. Kasallikning shakllariga ko'ra, bemorlarga konservativ va operativ davo muolajalari o'tkazildi. Palpatsiyada kindik venasining qalinlashishini aniqlandi.


Mastit - yiringli mastit chaqaloq hayotning birinchi haftalarida, ko'pincha sut bezlarining fiziologik shishi bilan namoyon bo'ladi. Ko'krak sut bezlari sohasida shish, qizarish, og'riq, terining va chuqur joylashgan to'qimalarning siqilishi paydo bo'ladi. Bola bezovtalanadi, keyin chalik tana harorati ko'tariladi. Jarayon tarqalishi va ko'krak qafasida, uning asorati sifatida flegmona rivojlanadi va jarayon uzoq davom etadigan sepsisga sabab bo'lishi mumkin. 20 ta bemordan 6 tasida o'ng tomonlama, 12 tasida chap tomonlama va 2 ta bemor ikki tomonlama mastit bo'yicha davolangan (rasim-4).



4-Rasm. Mastit.

Davolangan bolalarning 3 tasi, kasallikning asorati flegmona bo'yicha davolandi. Bu chaqaloqlarda, gipertermiya, leykotsitoz, ECHT ning oshishi uzoq davom etdi. Sepsis ehtimoli yuqori bo'ldi. Infektsiyaning kirish darvozasi, lokalizatsiyasi yoki infektsiyaning asosiy markaziga qarab klinik ko'rinishi, kindik sepsis, teri, o'pka, ichak, otogen va boshqalar, intrauterin sepsis antenatal infektsiyaning natijasidir.

Epifizar osteomiyelit. Bu kasallikni qo'zg'atuvchilari-teri yuzasidagi tsafilakokklar, grammanfiy infektsiyalar, tushush yo'lari, gematogen-limfagen va teri butunligining buzulishlari. Chaqaloqlik davrida yallig'lanishga sabab bo'luvchi bir qancha kasalliklar mavjud: ya'ni tananing turli soxalarida, boshning soch soxasi, teri-yuzasida bo'ladigan, barcha yallig'lanish kasalliklari; pemfigus, teri shlinishlari, qizarishlari (matsaratsiya), omfalit, piodermiya, sklerema, psevdofurunkulyoz va boshqalar. Elka, son suyaklarining proksimal, distal qismlarida bo'ladigan - epifizar va metafizar osteomiyelitlar birlamchi-ikkilamchi, septikopiemiya yoki sepsis sababli kelib chiqadi (rasim-5).



Rasim-5. Epifizar osteomielit.

Qon tomirlar tarmoqlari katta bo'g'umlarga kelib quyulgadi, shu sababli infektsiyalanadi va yallig'lanish jarayoni yuzaga keladi. Erta yoshdagi, bolalar tanasining reaktivlik xolati ya'ni qarshilik kuchi, virulentligi infektsiyaga qarshilik ko'rsata olmaydi. Infeksiya o'zidan toksinlar ishlab chiqaradi va bu o'z oqibatida keyingi detsuriktsiyaga sabab bo'ladi. Davolangan bemorlarning ko'pchiligida, elka va son suyaklarining proksimal qismlarida epifizar osteomielit kuzatilgan bo'lsa, katta boldir suyaklarining proksimal qismlarida kasallik kam xalarda uchrashligi qayd qilindi. Bo'g'umlarda bo'ladigan yiringli yallig'lanish kasallikni o'rganib chiqanimizda ularning xar beshtasida, ikkita soxada bir vaqtda epifizar osteomielit uchrashi aniqlandi. Vazni kam bo'lgan, chala tug'ulgan chaqaloqlarda, kasallik juda ogir o'tadi va ko'pchilik bemorlarda atipik ko'rinishda kechadi va asoratlanadi. Bu jarayon asosan katta uzun naysimon suyaklarda kuzatiladi. Boshqa a'zoldagi boladiga kasalliklar xam bunga sabab bo'ladi. Anotomik jixatdan, suyak - bo'g'um, tizimining qon bilan taminlanishiga bogliq bo'ladi. Bo'g'um soxadagi qon tomirlar suyak o'zagini, qon bilan taminlashi, infektsiyalanishga sabab bo'ladi. Yalig'lanish jarayonida infeksiya o'zidan toksin chiqaradi va bu o'znavbatida bo'g'um ichidagi bosim oshishiga va kyinchalik yiringli artritning klinik belgilarini yuzaga chiqadi. Bu kasallikning birinchi asorati bo'ladi. Yelka - son bo'g'umlarida, shish, maxaliy xarorat, xarakat cheklanishiga sabab bo'ladi.

Bemor tana yuzasidagi yiringli yallig'lanish kasalliklarining tarqoqligiga, egallagan maydoniga bog'liq bo'ladi. Boshqa bir sabab, mono-poli infeksiya turiga xam bog'liq bo'ladi.

Kasallikning klinik belgilari kechishiga ko'ra; toksiko – septik, o'tkir maxaliy o'chogli shaklarga ajratiladi. Toksikoseptik shakli tez avj oladi, bolaning umumiy axvoli ogirlashadi, tana xarorati yuqori darajaga ko'tariladi. Xar ikkala shaklida xam suyakdagi o'zgarish bir xilda bo'ladi. Toksik - septik shaklida kasallik umumiy belgilar bilan namoyon bo'ladi. Maxaliy o'tkir shaklida, qo'l - oyoqlarda xarakat cheklanadi, bo'g'umda shish, maxaliy xarorat aniqlanadi. Qo'l - oyoq xarakatlantirilganda og'riq kuchayadi bola bezovtalanadi. Bolani yo'rgaklaganda, kiyimini echganda, kasalangan tomonda og'riq kuchayadi. Shu tomon qo'li orqaga buralgan, sezuvchanlik juda kuchli bo'ladi. Son suyagining proksimal qismida yallig'lanish bo'lganida, shu tomon oyogida xarakat cheklangan. Xar qanday harakat og'riqli va bolaning bezovtaligi bilan namoyon bo'ladi. bo'g'um va barmoqlarda xarakat cheklangan bo'ladi. Toksik - septik shakli bilan davolangan 2 ta bemorning, umumiy axvoli juda ogir edi, ichki zaxarlanish va tana xarorati 39 – 40°C ko'tarildi. Ichki zaxarlanish evaziga, disseptik o'zgarishlar, qusish va ich ketish kuzatildi. Davolangan bemorlarning 1 tasida, o'ng elka suyagining proksimal qismida va 1 tasida, chap son suyagining proksimal qismida xarakat cheklangan, soxta paralich (pseudoparalich) alomatlari kuzatilgan. Bolaning umumiy axvoli ogir bo'lishiga qaramay, kasalangan tomoni xarakatlantirishga urunganda, bemor bezovtalanadi.

Kasallikning o'tkir maxaliy shakli (formasi) bilan 10 ta chaqaloq davolangan. Bu bemorlarning umumiy axvolida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan, mahaliy o'zgarishlar - shu sohada shish, mahaliy xarorat kuzatilgan. Bemor oyoq - qo'larini o'ziga qulay xolatda saqlaydi, deyarli harakat bo'lmaydi. Bolaning oyog'i bukib, bir oz tashqariga buralgan xolatda bo'ladi, gavgdasiga

yaqin saqlaydi. Onalarning so'zidan, bacha bemorlarning anamnezida, kasallikning asosiy belgilari 2 – 3 kunlari namoyon bo'la boshlagan. Etiborli tomoni, xar ikala bo'g'umni tafovut qilib qaralganda, kasalangan tomon bo'g'um yuzasining silliqlashishi, xarakat cheklanishi, kasallikning ilk belgilari bo'ladi. Yana kasallikning o'ziga xos bo'lgan bir tomoni, kiyim kiyintrish paytida bolaning bezovtalanishi. Kasallik qancha uzoq davom etsa, o'z vaqtida tegishli davo muolajalari boshlanmasa, vaqt o'shi bilan, yiringli yallig'lanishning keyingi asorati yiringli artrit. Xar qanday asorat umumiy klinik belgilar bilan namoyon bo'la boshlaydi. Bemorning umumiy axvoli ogirlashadi, xam maxaliy, xam umumiy klinik belgilar bilan birga bo'g'um yuzasida flegmona rivojlanadi. Jarayon yanayam uzoq davom qilsa kasallikning navbatdagi asorati, boshqa suyaklarga, a'zolarga tarqaladi, metastaz beradi, sepsisning klinik belgilar kuzatiladi. Qon taxlilida lekotsitoz ($8 \times 10 - 20 \times$ g/l), neytrofilez, eozinofilioz va EChT oshadi.

To'g'ri proeksiyadagi rentgen tasvirida – kasallikning ilk belgilari 2-3 kunlari namoyon bo'ladi. Ya'ni yalig'lanish bo'lgan tomonda bo'g'um oraligi, sog'lom tomonga nisbatan kengayganligi ko'riladi. UTT da, yiringli artrit, yumshoq to'qimalardagi yalig'lanishlar aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan jarayon epifizdan, metafizga (o'suvchi sohaga) tarqalganida, periotsal (nasloenie) ko'rinadi. Rentgen va UTT tekshiruvlari, bo'g'umdagi, detsruktiv o'zgarish va patologik chiqishga xos o'zgarishlarni aniqlaydi. Bu yoshdagi bolalarda, epifizar osteomielitda sekvetsratsiya jarayoni kuzatilmaydi.

Xozirgi kunda bu kasallikni aniqlashda UTT eng asosiy yordamchi vosita hisoblanadi. Bo'gumdagi suyuqlikning (yiring va boshqa) xajmi, atrof yumshoq to'qimalardagi o'zgarishlarni aniqlaydi. Uzoq cheka joylarda UTT bo'lmagan xolarda, nur diagnostikasi ya'ni retgendan foydalaniladi. Neonatal davirda qlinadigan rentgening dozasini tanlash juda muxumdur. To'g'ridan tasvirga tushurishda xar ikkala bo'g'umni qamrab olish shart, bunda siz - sog'lom tomon bilan, kasalangan tomoni farqlay olasiz. Joylarda amalda rentgeni bajarish imkon bo'lmasa, yaxshisi tushurmaslik kerak, sababi qayta nurlanish, qizil qon ya'ni gemogramaning tushushiga olib keladi. Kasallikni aniqlashda: ketma ketlikda amalga oshilishi shart - anamnez yig'ish, bemorni fizikal ko'ruv, UTT, zarurat bo'lganida R-gen va bo'g'umni dignostik punksi qilish va punktatni ekmaga topshirish, qoning umumiy taxlili, bioximik taxlil, peshob taxlilini, taxlil qilishdan iborat. Barcha ma'lumotlar inter- pritatsiya qilingach tegishli davo muolajasi amalda oshiriladi. (rasim-6)



6-Rasm. Epifizar osteomielitni UTT yordamida diagnostika

Davolash tamoyili. Bemorning umumiy xolatini etiborga olgan xolda, qisqa mudat oralig'ida, infuzion terapiya buyriladi va ko'ruvdan keyin xirurgi davo amalga oshiriladi. Chaqaloqlik davrida, erta yoshdagi bolalarda barcha muolajalar umumiy ogriqsizlantrish otsida, amalga oshiriladi. Anotomik nuqtalardan punksiya qilish amalga oshiriladi. Oldiniga shu soxa (70^0) spirt bilan yuqumsizlantrilib, (0, 5% - 5,0 ml) novakain tortilib, ketma-ketlik bilan bo'gumga tushiladi, yiring olinadi va tezlik bilan ekmani laboratoriyaga jo'natiladi. Zaruratga ko'ra bo'gumga naycha (06-katetir) qoldiriladi. Punktat xarakteriga va miqdoriga ko'ra, bo'g'umga antibiotik yuboriladi. Elka suyagining proksimal qismi epifizar osteomielitida, Dezo bo'yicha qo'yilib immobilizatsiya qilinadi. Son suyagining proksimal qismida yalig'lanish bo'lganida, uch kun davomida punksiya qilinib antibiotik yuboriladi. Mushaklar tarangligi bo'shashganidan keyin klinika shinasi taqiladi. Barcha

osteomiyilit-lardagilardek bak-pasiv natijasiga ko'ra keng ko'lamdagi antibiotiklar qo'laniladi. Xar qanday xolatda xam qo'l - oyoqlar imoblizasiya qilinish shart. Ba'zi manbalarda artrotomiya qilish tavsiya qilingan, biz bu yoshdagi bolalarda deyerli artrotomiya qilmadik va bunga ko'rsatma bo'lmadi. Son suyagining proksimal qismi osteomiyilitida klinika shinasini, ko'rsatma bo'yicha, 3 oydan-6 oygacha taqishni tavsiya qildik.

Bu bemirlar doimiy nazoratimizda bo'ldi, xar oyda, xar ikki oyda R-gen, UTT nazorati otkazildi va qo'shimcha fizio terapiya muolajalarini oldi. Shu davir mobaynida, vitaminlar V va S gruxi, zaruratga ko'ra antista-filakokkivie gammo-globulin, imunoglobulin buyriladi. Shu davr mobaynida ambulator ravishda fizioterapiya muolajalari, UVCh, uchinchi xaftadan boshlab, KY bilan elektrofarez muolajalari davom etirildi.

Asoratlangan xollarda, yalliglanish metafizar soxaga o'tib paraartikulyar flegmonaga aylanganda, yiringli artrit bo'lganida umumiy ogriqsizlan-trish otsida bo'g'um yuzasidan 1-2 sm kesim o'tkazilib, yiringdan tozalanib, jaroxatga rezinali kertmak (vipusnik) qoldirilib, asseptik boylam qo'yilib, immoblizatsiya qilinadi. Tana xarorati meyoriga kelgach, fizio terapiya muolajasi qo'shiladi. UVCh, antibiotika terapiya, infuzion terapiya, transfuziya, euobiotik, vitamina terapiya davom etiriladi.

Bir yil davomida mutaxasis nazoratida bo'ladi. Asoratlangan xolda besh yoshgacha, xirurg, ortoped nazoratida bo'ladi va reabilitatsiya davrini o'taydi.

Xulosa. Sepsisning ob'ektiv mezonlariga asoslangan ba'zi noto'g'ri tasniflarga qaramay, kasallikning yuqori darajadagi og'irligi infektsiyaning mavjudligi bilan bog'liq. Sepsisning darajalariga ko'ra, antibiotiklarni ushlab turish mezonlarini ishlab chiqish orqali mikroblarga qarshi kurash qiyin bo'lishi mumkin, somatik sepsisdan farqli xirurgik sepsisda davolash o'laroq farqlanadi. Yuqorida keltilgan, yiringli yalliglanishlanish kasalliklarini faqatgina jarrohlik yo'li bilan bartaraf qilish mumkin bo'ladi. Status lokalisga asoslannib, chaqaloqning anotomo-fizilogik xususiyatlarini, kyingi asoratlarning oldini olish maqsadida, erta kesimlar qilish, kertmaklar qo'yish, asseptik magnezial-antibiotikli bog'lamlar qo'yish va boglamlar vaqtini, etiborga olish zarur bo'ladi.

REFERENCES| ЧОҚҚИ | ИҚТИБОСЛАР:

1. Volodin N.N., Chernishov V.N., Degtyarev D.N. va boshqalar. Neonatologiya: oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. - M.: "Akademiya", 2005.
2. Kuhn P., Dheu C., Bolender C. et al. Incidence and distribution of pathogens in early-onset neonatal sepsis in the era of antenatal antibiotics. *Paediatr Perinat Epidemiol.* 2010;24(5):479-87.
3. Simonsen K.A., Anderson-Berry L.N., Delair S.F., Davies H.D. Early-onset neonatal sepsis. *Clin Microbiol Rev.* 2014;27(1):21-47.
4. Klingenberg K., Cornelisse R.F., Buonocore D. va boshqalar. Salbiy kulturalar bilan erta neonatal sepsis: samarali sepsisni davolash va antibakterial terapiya strategiyasi o'rtasidagi chorrahada. // *Neonatologiya*, № 1, 2020.
5. Lekmanov A.U., Mironov P.I., Aleksandrovich Yu.S. va boshqalar. Bolalarda sepsis: federal klinik ko'rsatmalar (loyiha) // *Rossiya bolalar jarrohligi, anesteziologiya va reanimatsiya byulleteni*, 2021, 11-jild, № 2, 241-292-betlar.
6. Dmitriev A.V., Zaplatnikov A.L. Neonatal sepsis: zamonaviy diagnostika imkoniyatlari. *Pediatrica. Speranskiy jurnali.* 2022;101(1):140-8.5.
7. Santhanam S., Arun S., Rebekah G. et al. Perinatal risk factors for neonatal early-onset group B streptococcal sepsis after Initiation of risk-based maternal intrapartum antibiotic prophylaxis - a case control study. *J Trop Pediatr.* 2018;64(4):312-6.
8. Dustin D. F., Karen M. P. Neonatal early-onset sepsis. *Neoreviews.* 2022;23(11):756-70.
9. Takassi O.E., Atakouma Y.D., Desfrere L. Predictors of early-onset neonatal sepsis in premature newborns: Case-control study. *Arch Pediatr.* 2022;29(3):183-10. Hills T., Sharpe C., Wong T. et al. Fetal loss and preterm birth caused by intraamniotic *Haemophilus influenzae* infection, New Zealand. *Emerg Infect Dis.* 2022;28(9):1749-54.

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ

JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000